



Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

21-OKTYABR - DAVLAT TILI HAQIDAGI QONUN QABUL QILINGAN KUN



*Til — shuncha sharafi
bilan nutqning
qurolidir. Agar nutq
noma'qul bo'lib chiqsa
— tilning ofatidir.*

Alisher Navoiy

русском языке XXI века.....	77
Улугбек Баисов. Изучение плеонастических выражений в современной лингвистике.....	79
Мамура Маллаева. Роль русского языка в современных условиях.....	81
Akmaljon Baratov. O'rta masofaga yuguruvchi maktab o'quvchilari mashg'ulotlarini tashkil etish.....	79
Исломжон Махсумов. Комплексный контроль ловкости в процессе многолетней подготовки футболистов.....	86
Saodatkhan Khodjaeva. Features of translation of brand names and advertising slogans.....	88
Dildora Babaxanova. The role of motivation in language learning.....	91
Nargiza Aminova. Language evolution in the age of social media: a linguistic dilemma.....	93
Ulmira Embergenova. Similarities and differences in professional lexicon and terminology in english language teaching.....	96
Kichik tadqiqot	
Inomiddin Imomov. Kredit modul tizimi: muammo va yechimlar (nodavlat oliy ta'lim muassasalari misolida).....	101
O'lmas Saidov. Ish yuritishga oid terminologik birliklarning shakliy tavsifi.....	103
Akbar Ruziyev. Tilshunoslikda diskurs atamasi talqini.....	105
Parviz Izzatillayev. "Majolis un-nafois" va uning	

forscha tarjimasi "Latoyifnoma" orasidagi ayrim ixtiloflar.....	107
Muhayyo Ismailova, Sagdiyana Abdusattarova, Jahongir Asatullayev. O'quvchilarning salomatlik darajasini aniqlash va sportga istiqboliligini tashxis etish.....	109
Urmonoy Toshmatova. Boshlang'ich sinflarda mantiqiy masalalarni hayotga tatbiq etish.....	111
Jamshid Atavullayev. Anton Pavlovich Chexov ijodining o'zbek adabiyotiga ta'siri masalalari.....	113
Khurshida Toshova. Perl Bak asarlarida ayol matonati tavsifi.....	114
Zarina Homidova. Boshlang'ich sinflarda o'quv lug'atlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish usullari.....	117
Dilorom Mengziyoyeva. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida komil shaxs tarbiyasiga oid qarashlar.....	119
Ismigul Do'stmurodova. Xalq dostonlarida obraz va obrazlilik masalalari.....	121
Kumush Odina Qarshiboyeva. Mansur Jumayev she'riyati haqida.....	124
Nigora Mirzoidova. The role of technology for developing critical thinking through reading and writing in improving the translation competence of university students.....	126
Yoshlik ilhomlari	
Hakimbek G'ulomjonov. Yigirma yoshimda ellikka kirdim.....	128

ONA TILIM

Garchi zug'um qilganlarni yoqtirmadim,
She'r yozdimni bo'lak ishini qotirmadim.
Tilim turib o'z tilinda gapirmadim,
Bir eslasam eziladi bog'ri tilim.
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Onam «erkani» deb quchiganda tunlar yarim,
Erkim yo'q deb zirqirardi bir joylarim,
Parovozni hansiratgan bug'doylarim,
Oltinlarim, ma'danlarim, ipaklarim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimlar uchun biz edik bir badaviylar,
O'zbekni qon qaqshatganni o'zbek siylar,
Holiniuzni qon kuzatdi Yassaviylar,
Topganimiz handalakdek tilim tilim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimdir mayda millat bo'ldi, kimdir katta,
Katta millat — Alandisi yo'kdir hatto,
Biz piyoda, biz boqqanlar yurdi otda,
Zulm o'tsa faqat sendan o'tdi zulm,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Sen bo'lmasang nima bizga silliq she'rlar,
Bu dunyoda tili yo'qda dil yo'q derlar,
Bahoing-ku berib ketgan Alisherlar,
Yuragimning to'ridagi so'lmas gulim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Bir qarasam har shevangda ming jilolar
Har novdangda, har mevangda ming jilolar.
Qodiriylar, Cho'lponlar-u, Abdullolar,
Sening qaytgan kuning men tug'ilgan yilim,
Ona tilim, ey muqaddas Ona tilim.

Muhammad Yusuf

beradi. Obrazning ruhiy jihatdan asoslanganligi, birinchi navbatda, uning badiiyatini ta'minlash, ikkinchidan, asarning estetik qimmatini ko'rsatishga xizmat qiladi. Badiiy asar tahliliga bir necha fanlar kesishuvida yondashish obraz mohiyatiga chuqurroq kirish va insonni har tomonlama o'rganish imkonini beradi. A.P.Chexovning hikoyalarini mana shu turli fanlar kesishuvi asosida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir: "Chol Osip salmoqlab, ozodlikdan ilgari dehqonlarning qanday yashaganini gapirib ketdi (bu o'rinda 1861-yilda Aleksandr II zamonida dehqonlarni krepstnoy huquqidan ozod qilinmasdan oldingi davr qapiriladi). Xuddi shu kabi A.P.Chexov asarlari ifodasi turli fanlar kesishuvida tasvirlanadi.

A.P.Chexov hikoyalarida sarlavhalar mahorat bilan tanlanadi, hikoya g'oyasidan xabar beradi. Hikoyani o'qib bo'lgach, nega aynan shu sarlavha tanlanganini tushunib yetasiz, yozuvchining mahoratiga tasanno, deysiz. Hikoyalarning oxiriga katta ma'no yuklanadi. Butun hikoyadagi voqealar rivojini kuchaytirib bo'lib, oxirida "portlaydi".

Umuman olganda, so'z tejamliligida, asar qismlarini g'oya atrofida jipslashtirishda Chexovga yetadigan adib sanoqli, desak, to'g'ri bo'ladi. Shu

sababli ham A. P. Chexov ijodi butun dunyodagi ko'plab hikoyanavis yozuvchilar uchun ilhom manbayi bo'lib xizmat qilgan.

Ayniqsa, A.Qahhor, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov va boshqa bir qator adiblarimiz hikoyalarida Chexovga xos uslub yaqqol sezilib turadi.

"Semiz va ori", "Niqob", "Lozim choralari", "Xameleon", "Chinovikning o'limi" kabi hikoyalarda o'sha davr jamiyatidagi laganbardorlik, xushomadgo'ylik, kuchlining, boyning soyasiga ko'rpacha yozish singari illatlar qoralansa, "Mujiklar", "Soylikda", "Yovuz niyatli kishi", "Vanka" hikoyalarida oddiy xalq hayoti, orzu-armonlari yuksak mahorat bilan tasvirlanadi.

Mo'jazgina "Chiqdi" orqali esa kattagina hayot haqiqati, ya'ni odamlarning o'zgalar kamchiliklarini g'iybat qilib, o'zining qusurlariga e'tibor bermasligi juda go'zal tarzda ochib beriladi.

A.P.Chexov ijodidagi hikoyalarni o'qib ibrat va zavq olasiz. Qahramonlarning kamchiliklaridan goh kulasiz, goh jahlingiz chiqadi, xullas, ularning hayoti bilan yashaysiz. Anton Pavlovich Chexovning hikoyalari eng sevimli jahon adabiyotining adabiy merosi ekaniga shubha yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chexov A.P. "Semiz va ori". – Toshkent: Ziyo nashr, 2023. 8-bet.
2. Abdulla Qahhor. Hikoyalar. – Toshkent: Kamalak, 1995. 46-bet.
3. Chexov A.P. "Mujiklar". – Toshkent: Ziyo nashr, 2023. 56-bet.

Khurshida TOSHOVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik
Universiteti o'qituvchisi
toshovaxurshida1990@gmail.com

PERL BAK ASARLARIDA AYOL MATONATI TAVSIFI

Annotatsiya: ushbu maqolada mashhur Amerika yozuvchisi Nobel va Pulitzer mukofotlari sohibasi Perl Bak asarlarida ayol matonati tavsifi va irqiy kamsitilishga barham berishi haqida to'xtalib o'tilgan. Azal-azaldan ingliz adabiyoti va undagi asarlar ham ayol obrazini turli janrlarda tasvirlab, nodir asarlarni taqdim qilib kelmoqda. Uning aynan "The Good Earth" (1931) romani, ya'ni ayol tasviri yaratilgan asari "Pulitzer" (1932) mukofotiga sazovor bo'ldi. Va aynan shu asar Nobel mukofotini ham olishida muhim ro'l o'ynadi. Perl Bak adabiyotda Pulitzer va Nobel mukofotini olgan yagona ayol va uning asarlari Amerika adabiyoti tarixida keng miqyosda tarjima qilingan.

Kalit so'zlar: xitoy (Sharq) ayollari, yagona shaxs, fidoyilik, chidamlilik, ayol obrazi, kanizak, anonim ona, Konfutsiy ta'limoti

Аннотация: в этой статье известная американская писательница Перл Бак, лауреат Нобелевской и Пулитцеровской премий, рассказывает об описании женской силы и ликвидации расовой дискриминации. Английская литература и произведения в ней с незапамятных времен изображают образ женщины в различных жанрах и представляют редкие произведения. Именно его роман «Добрая земля» (1931), то есть произведение, в котором создан образ женщины, получил «Пулитцеровскую» премию (1932). И эта работа сыграла важную роль в получении Нобелевской премии. Перл Бак — единственная женщина, получившая одновременно Пулитцеровскую премию и Нобелевскую премию по литературе, а ее произведения являются наиболее широко переводимыми в истории американской литературы.

Ключевые слова: китайские (восточные) женщины, одинокий человек, самопожертвование, выносливость, женский образ, наложница, неизвестная мать, конфуцианство.

Annotation: in this article, the famous American writer Pearl Buck, winner of the Nobel and Pulitzer Prizes,

talks about the description of female power and the elimination of racial discrimination. English literature and the works in it have depicted the image of a woman in various genres since time immemorial and represent rare works. It was his novel *The Good Earth* (1931), that is, the work in which the image of a woman was created, that received the Pulitzer Prize (1932). And this work played an important role in receiving the Nobel Prize. Pearl Buck is the only woman to have received both the Pulitzer Prize and the Nobel Prize in Literature, and her works are the most widely translated in the history of American literature.

Key words: *chinese (Eastern) women, single person, self-sacrifice, endurance, female image, concubine, unknown mother, Confucianism.*

Kirish. Perl Bak amerikalik buyuk adiba, Nobel Mukofoti laureati (1938) g'arbliklarga haqiqiy Xitoy asarlari, undagi odamlar va Xitoy (Sharq) ayollarini o'zining romanlarida yorqin ifodalab bergani bilan muvaffaqiyatli tanishtira olgan yozuvchi va tarjimon hisoblanadi. Perl Bak Xitoy (Sharq) ayollari misolida ayollar mavzusini yoritib berishi bejizga emas, chunki Amerika yozuvchisining bolaligi va o'smirligi Xitoyda o'tgan. To'rt oylikidan boshlab Perl Bakning real hayot asosidagi tajribalari bizga Xitoyni biz tushuna oladigan til bilan xitoyliklar ko'rganidek, tushunganidek taqdim etadi, bu G'arb va Sharq o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi (Bently 793).

Ayollar tasviriga bag'ishlangan asarlarida Perl Bak ko'pincha xitoy (Sharq) ayollari qanday mard, farishtanamo siymalar va oilaparvar ekanligi xitoyliklarning umumiy madaniyati, ertaklari, mashhur asarlari hamda tarixlarida aks etgan. amerikalik adabiyotshunos olim Robert Spillerning "Qo'shma shtatlar adabiyoti tarixi"da qayd qilishicha, Perl Bakning asarlari ayniqsa, Shvetsiyada yaxshi qarshi olingan. Yana bir amerikalik olim Paul Doylening qayd etishicha, Perl Bakning asarlari dunyodagi eng muhim bo'lgan tillarga tarjima qilingan. U va Mark Tven Amerikalik yozuvchilar orasida o'tmishda ham, hozirda ham xorijdagi mamlakatlarda mashhurlikka erishgan. Taxminan 13 ta romanida Perl Bak, turli tabaqadagi xitoy (Sharq) ayollarini yorqin tasvirlagan. Biz tahlilga olgan quyidagi 5 ta roman ham xitoy ayollarini tasvirlagan: *East Wind: West Wind* (1930), *The Good Earth* (1932), *The Mother* (1934), *Pavilion of women* (1946), *Peony* (1948).

Shu o'rinda yana shuni ta'kidlash o'rinliki, Perl Bakning birinchi "Xitoy ayoli so'zlaydi" deb nomlangan ikki hikoyasi 1925-yilda "Asia" jurnalida chop etilgan va besh yildan so'ng 1930-yili bu hikoyalar qayta ishlanib, "East Wind, West Wind" nomi bilan roman sifatida chop ettiradi (S.Akobirova). Perl Bak asarlarida ayollarga nisbatan o'zi yashayotgan davrdagi munosabat, ayollarning jamiyatdagi va oiladagi o'rni, nohaqliklar ba'zan maqtov, ba'zan achchiq haqiqat asosida jonli tasvirlanadi.

Asosiy qism. Perl Bakning 1934-yilda chop

qilingan "The Mother" asarida xitoylik dehqon ona timsolida aslida dunyodagi barcha onalarni tasvirlagan. Perl Bak ning bu asardan, ya'ni onani tasvirlashdan maqsadi aniq: faqat ona hammani seva oladi, oilasi uchun mas'ul bo'la oladi. Hamisha oilasi va bolalari uchun o'zini qurbon qilishga tayyor va shuning uchun ham hayotini oldinga surish uchun harakatlantiruvchi kuchdir (Gao, Xiongya). Bu sevgi, fidoyilik, chidamlilik balki barcha onalarda biz anglagan narsa, onani har tomonlama ta'sirga ega bo'lgan xarakterga aylantirdi. Shu xususiyatlari tufayli ham bu asar ko'pchilikning e'tiborini tortdi.

Adabiyot tanqidchilaridan Richards, Doren, Brickell, va Schneider larning fikrlariga ko'ra ona asosiy qahramon va tabiatan umumiy, barcha irqning onalarini o'z ichiga oladi. Adamasning fikricha, Perl Bak tasvirlagan dehqon ayol mavhum emas bu hikoya faqatgina ramziy axloqni ifodalaydi. Ayolga nom berilmagan bo'lishiga qaramasdan butun romanda "The Mother" deb gapiriladi va u o'z hayotini bera oladigan yagona shaxsdir. Perl Bak "The Mother" asarida hamma yerdagi yaxshi ayollarni ko'rsatib berish uchun xitoydagi dehqon, oddiy ayol obrazini tasvirlaydi.

Yozuvchining "Pavilion of women" asariga nazar soladigan bo'lsak, xitoylik kanizak ayol holati, uni tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qiladi, bu esa inson tabiatiga chinakam hurmatni talab qiladi. Umumiy qilib aytganda Perl Bakning xitoylik (Sharq) ayollari oilaparvar ekanligi tasvirlanadi. Uning ko'pchilik kitoblaridagi Xitoy (Sharq) ayollari tasviri, uning umumiy qilib Xitoy (Sharq) ayollari haqida yozganligi, buni tasdiqlaydi.

Xitoy (Sharq) ayollarining xarakter sifati haqida P.Bak shunday deydi: "Har qayerdagi eng yaxshisi bilan teng va bu sifat eng kambag'al, eng savodsiz va shuningdek baxtlisida ham topiladi. Umumiy olganda Xitoy (Sharq) ayollarida erkaklarga qaraganda to'g'riso'zlik, sadoqatlilik, chidamni qiyinchiliklar va hayot jarayonlarida ko'rsatishdir. Perl Bak tomonidan qattiq yomon ko'rilgan ayol bu-kanizaklik, aslida Konfutsiy ta'limotidan noto'g'ri foydalanishgan. Turmush qurgan juftliklar oilani saqlab qolish uchun farzand ko'rishlari kerakligini o'rgatgan. Farzandlik sadoqati bahonasida

deydi: Paul Sih xotinlari erkak avlod tug'maganlarida kanizaklar olib kelishi ko'pxotinlikka olib kelgan va bu Konfutsiy axloqining asosiy maqsadini barbard qilgan.

Yana "The Mother" asariga qaytadigan bo'lsak, asardagi ona obrazi anonim bo'lishi mumkin va Perl Bak ataylab uni butun asarda anonim qoldiradi. U nafaqat Xitoydagi ko'plab dehqon onalarni, balki Xitoydagi barcha onalarni ifodalaydi. Shuning uchun ham kitobning mavzusi onalik deb aytiladi. Xitoylik ayol qiyinchiliklarga qaramasdan oxirigacha yaxshi ona sifatida sobit bo'lib qoladi. Bunga aniq ko'rinib turgan ustunlik xarakteridagi tushuncha shuki, Xitoy ayollari erkaklaridan ustun deb ta'kidlangan (Doan Cao Ly).

Qisqa qilib aytganda yozuvchining ayollarni tasvirlagan har bir asarida ayollarning chinakam matonati, hayotga, yashab qolishga bo'lgan kurashi, oilasi va yaqinlari uchun o'zini qay darajada qurbon qilishga tayyor ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Xulosa. G'arbliklar ko'pchilik Xitoy ayollarini baxtsiz deb hisoblashadi. Xitoyda tug'ilgan ko'pchilik ayollar sevimli yoki istalgan emas, bu

ko'pchilik Xitoy onalari o'tmishda o'zlarining qiz bola chaqalog'ini past darajada va itoatkor bo'lib dunyoga kirib kelishiga imkon bergandan ko'ra uni qurbon qilishgan. Xitoy ayollarining hayoti uch karra namuna bo'la oladi. Uyida u otasiga itoat qiladi, turmush qurgach turmush o'rtog'iga, turmush o'rtog'ining vafotidan keyin esa o'g'liga itoat qiladi.

Kelin sifatida u uyning birinchi xonimiga ovozsiz xizmatkor. Ayol turmush o'rtog'ining soyasi, hech qachon turmush o'rtog'idan oldinda yoki yonmayon ko'rilmagan. Hushtor sifatida o'yinchoq bo'lgan. Perl Bak Xitoy(Sharq) ayollarini tasvirlash bilan, birinchi marta Xitoydagi ma'lum bir ijtimoiy holatlarni muvaffaqiyatli olib o'ta oldi va inson tabiatini, o'zini tasvirladi. Xitoy(Sharq) ayollardagi yaxshilik, undagi kamchiliklar, va shu bilan birga hayotdagi eng yuksak namuna bo'la oladigan qobiliyati bor ekanligini ko'rsata oldi.

Ayollardagi boshqa hech bir xilqatda uchramaydigan, tenglashtirib bo'lmaydigan fazilatlarini, matonatinini P.Bak asarlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akobirova Sarvara "Amerika adabiyoti va sharq (XX asrning birinchi yarmi misolida). PHD dissertatsiyasi. -Toshkent, 2002. UDK 820(73).09
2. Adams, J Donald. "A True Epitome of Motherhood: Mrs. Buck's Deeply Elemental Novel of Chinese Peasant Life". The New York Times 14 Jan. 1934, 5: 1, 18.
3. Bentley Phyllis. The Art of Pearl S. Buck, "English Journal, Vol. 24 (December 1935), 791-800-p
4. Buck, Pearl Sydenstricker, East Wind: West Wind, New York, 1930
5. Brickell, Herschel. Rev. of The Mother. New York Evening Post 20 January. 1934:7
6. Buck Pearl "Chinese Women". Pacific Affairs. vol.4 (October 1931) p.905.
7. Doan Cao Ly. The Image of the Chinese Family in Pearl Buck's Novels. St. John's University New York. August 4, 1964
8. Gao Xionggya, Images of Chinese women in Pearl S. Buck's novels: a study of characterization in "East Wind: West Wind", "Pavilion of Woman", "Peony", "The good Earth" and "The Mother". Ball State University, Indiana March 1993
9. Toshova Khurshida Ibodullayevna. (2024). PORTRAYAL OF WOMEN FROM VARIOUS SOCIAL STRATA (AS EXEMPLIFIED IN PEARL BUCK'S WORKS). European Journal of Humanities and Educational Advancements, 5(5), 100-102. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/4589>
10. Toshova Khurshida Ibodullayevna and KHASANOV ASLIDDIN ABDIMUROTOVICH, "Importance of needs analysis in second language acquisition", isrc, vol. 1, no. 1, pp. 386-391, Oct. 2023.
11. Toshova, K. I. (2024). "Women's character in Pearl Buck's The Good Earth". Confrencea, 5, 21-24. Retrieved from <https://confrencea.org/index.php/confrencea/article/view/1356>



Til va adabiyot ta'limi" –
«Преподавание языка и литературы» –
«Language and literature teaching»
ilmiy-metodik jurnali

@ Tilvaadabiyot.uz
elektron ilmiy-metodik jurnali

tilvaadabiyot.uz saytida mualliflik maqolasi joylashtirilganligi to'g'risida

@
Tilvaadabiyot.uz

SERTIFIKAT

Ushbu sertifikat **KHURSHIDA TOSHOV**ning maqolasi
tilvaadabiyot.uz saytida chop etilganligini **tasdiqlaydi**.

Mavzu: "Perl Bak asarlarida ayol matonati tavsif"

Nashrning Web-manzili: <https://tilvaadabiyot.uz/bosh-sahifa/product/17-son-2024-yil>

@Tilvaadabiyot.uz
elektron ilmiy-metodik jurnali
Bosh muharriri

N. X. Berdiyeva



N.X.Berdiyeva

№41-2024